

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## YOSHLARGA BADIY KULOLCHILIKNI O'RGATISHDA KLASTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Berdiyev Navro'z Odiljon o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Unversiteti

Tasviriy San'at va amaliy bezak san'at Yo'nalishi II-bosqich magistranti

Xaqnazarova Xadicha Xasanovna

Surxondaryo viloyati Termiz Shahar 12-maktab o'qituvchisi

### Annotatsiya

Mazkur maqola badiiy kulolchilikni klister texnologiyalaridan foydalanish hamda zamonaviy texnika texnologiyalarni mahalliyashtirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** klister, texnika texnologiya, loydan turlari, kulolchilik texnologiyalari,

O'zbekistonda kulolchilikni takomillashtirish uni yanada rivojlantirishda klaster texnologiyalaridan foydalanish, xorijiy texnika texnologiyalarni mahalliyashtirishga hamda uni yanada zamonaviy qilish uchun izlanishlar olib borilmoqda. Shuni takidlash joyizki mamlakatimizda kulolchilikga yaqin yaqinda katta etibor berilgani usta kulollar o'z ishlarini sotishlari yoki bo'lmasa turli ko'rgazmalar tashlik etishlari xorij mahsulotlari bilan bemalol raqobatlashadigan mahsulotlar borligi quvonarli holat. Usta hunarmandlarni o'z uslub yoki ishlash texnikasini yanada rivojlanishi uchun turli form va ko'rgazmalar o'tkazilishi klaster asosida ustalar bir-birlari bilan ish yani (tajriba) almashishlariga zamin horizlaydi. Fikrimiz dalili sifatida Rishton tumanida joylashgan "Mingboshi keramik" kulolchilik klasteri hamda Amerikaning "Diamond (USA)inc" kompaniyasi tomonidan 5 (besh)mln. Dollirlik mahsulot eksport sharnomasiga erishilgani o'zaro hamkorlik 80(sakson) ming AQSH dollari hajmidagi zamonaviy kulolchilik mahsulotlari ocean orti mamlakatiga yuborildi. Shu tariqa AQSH muntazam ravishda eksport faoliyatini amalga oshirish ishlariga kirishildi. Ishonamizki yaqin istiqbolda Rishton kulolchiligi mahsulotlari "sehrli diyor"ni zabt etadi.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, 77 (yetmish yetti) yoshli Sharofiddin Yusupovning Navoiy MFY, Roshidon ko'chasida joylashgan uyida bo'lgan mashhur usta-kulol uning nodir kulolchilik mahsulotlarini ko'zdan kechirishingiz

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

mumkin. Yusupov yangi tashkil etilayotgan uy muzeyi va turistlarni ham o'ziga jalb etmay qolmadi.

Ushbu mahallada yana bir usta-kulol Shokirjon Ahmadjonovning yangi tashkil etgan kulolchilik klasteri faoliyati bilan tanishildi. 5(besh) mlrd. So'm qiymatidagi ushbu loyiha 2021-yil oktyabr oyida ishga tushirilgan bo'lin 30 (o'ttiz) ta doimiy ish o'rni yaratilganligi hamda 3 (uch) ming nafar aholini kasanachilik bilan bandligi taminlanmoqda.

Malumki kulolchilik ya'ni tuproq (gil)dan sopol buyumlari yasash bugungi kunda mamlakatlar nomi bilan bo'g'langan . Turk, Yapon kulolchiligi KOreys, Xitoy va boshqa mamlakatlar kulolchiliklari orasida O'zbekistonning Rishton tumani kulolchiligi ham o'z o'rniga ega desak, mubolag'a bo'lmayd. Rishton kulolchilik maktabi mahsulotlarni o'zining jimjimador , nafis, ko'zni qamashtiruvchi naqshlari bilan kishini lol qoldiradi. Bir-birini takrorlamaydigan naqshlar bilan jilolangan ko'zalar laganlar, choynak-piyolalar nafaqat milliy, balki xorijiy sayyohlarning ham e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

30 (o'ttiz) yildirki kulolchilik bilan shug'ullanib keluvchi mashhur usta kulol Ravshan Tojidinov asos slogan "Korxonona" kulolchilik ishlab chiqarish markazida bo'ldi hamda sopol idishlar yasash jarayoni bilan tanishdi, uni ko'rgazmalar zalida tomosha qildi.Kulollar sulolasi vakilining aytishicha III (uch) avloddirki kulolchilik bilan shug'ullanib keladi. \*Bobomiz ham kulol bo'lganlar.\* Dadam va amakim ham kulolchilik qilishgan. O'zimiz ham yoshlikdan ushbu hunarni o'rgandik. Garchi ishimizning mehnati og'ir bo'lsa-da , haloldir. Shuning ortidan shu darajaga erishdik, bugungi kunda dunyoning Turkiya, Qozog'iston, Xitoy, Rossiya, Gretsiya kabi 10 (o'n)dan ortiq mamlakatiga mahsulot ekspotr qilinmoqda. Korxonona 70 (yetmish) dan ortiq ish o'rni yaratilgan bo'lib, yana 300 (uch yuz) dan ortiq kishi buyurtmalarni bajarish orqali uydan ishlash imkoniyatiga ega. Korxonona 3 (uch) xil: nuqtali, mehrob va qoraqalam yo'nalishdagi naqshlar solingan idishlar ishlab chiqariladi.

Ma'lum bo'lishicha , korxonona muzeyi YuNeSKO ro'yxatiga ham kiritilgan, bu yarga turli davlatlardan xorijiy sayyohlar kelib turishgan. Korxonona xalqaro tajriba almashishni ham yo'lga qo'ygan bo'lib, bu yerda Turkiya naqshlari asosida ham sopol buyumlar ishlab chiladi, hamda uni sotish ishlari ham mavjudligi bu korxonona yetarlicha klaster usulida ish faoliyatini olib borishi fikrimiz dalilidir.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi shart». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. –T.: O'zbekiston, 2017
2. [www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz)
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Berdiyev N.Z. Tasviriy san'atdan o'quv postonovkalarini tashkil etishda nazariy materiallardan foydalanish texnologiyalari //Science and Education. – 2022. T. 3. – №. 4. – C. 1499-1507.



**E- Conference Series**

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE  
SERIES